

## KOMIL INSON VA IJTIMOYIY TARBIYA MASALALARI

Nazokat Davlatboy qizi Abdurahmonova  
Namangan davlat universiteti

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada jamiyat ijtimoiy hayotida komil inson, komil insonning o'ziga xos sifatlari va ijtimoiy tarbiya jarayonlari atroflicha tahlil etilgan.

**Kalit so'zlar:** komil inson, ijtimoiy tarbiya, millat, ma'naviyat, qadriyat, vatanparvarlik, ijtimoiy me'yor, til, madaniyat, barkamollik

## PROBLEMS OF PERFECT MAN AND SOCIAL EDUCATION

Nazokat Davlatboy kizi Abdurahmanova  
Namangan State University

**Abstract:** In this article, the perfect person in the social life of society, the unique qualities of a perfect person and the processes of social education are thoroughly analyzed.

**Keywords:** perfect person, social education, nation, spirituality, value, patriotism, social norm, language, culture, perfection

Bugungi kunda ma'naviy va jismoniy barkamol avlodni tarbiyalash, voyaga yetkazish biz uchun umumdavlat miqyosidagi kechiktirib bo'lmaydigan vazifa sanaladi.

Erksevar xalqimiz mustaqillik tufayli, o'z yeri, o'z tili, o'z diniga ega bo'ldi, milliy g'ururi, izzat obro'si tiklanib, endilikda qadriyatlarimiz ma'naviy merosimizdan bahramand bo'lmoqdamiz. Mustaqillik va ma'naviyat bir-biri bilan bog'liq tushunchalardir. Shuningdek, bugungi kunda ijtimoiy barqarorlikni ta'minlash maqsadida hukumat tomonidan ma'naviyat va ma'rifatga doimo katta e'tibor berib kelmoqda.

Shu tufayli xalqimiz o'ziligini tanib, tarix oldidagi vazifasini anglab olmoqda. Inson ma'naviyatini yuksaltirmasdan turib, xalqimiz hayoti va turmushini yuksalishida hamda mamlakatimiz taraqqiyotida muvaffaqiyatlarga erishish qiyin.

Faqat ma'naviy sog'lom, kuchli jamiyatgina islohotlarga tayyor bo'lishi mumkin. Kishilarda, xususan yoshlarda yangi ma'naviyatning shakllanishi ancha murakkab va mashaqqatli jarayon hisoblanadi. Buni amalga oshirish uchun keng ko'lamli madaniy, tarixiy, ma'rifiy, tarbiyaviy ishlarni amalga oshirish zarur.

Mamlakatimiz mustaqillikka erishgan dastlabki kunlardan oq milliy va umuminsoniy qadriyatlar ruhida tarbiyalangan, jamiyat taraqqiyotiga o'z hissasini

qo'shishga qodir, jismoniy va ma'naviy yetuk avlodni kamolotga yetkazishga alohida e'tibor qaratildi.

Yoshlar - har bir yurt va millatning betimsol boyligi, buyuk salohiyati hamda kuch-qudrat manbai ekan, taraqqiyotga intilayotgan jamiyat u haqda g'amxo'rlik qilishni birinchi galdagi vazifasi deb bilishi tabiiy. Binobarin, yoshlarga g'amxo'rlik ko'rsatish yurt va millat kelajagi to'g'risida qayg'urmoq demakdir.

Ma'naviy barkamol avlod tushunchasi keng qamrovli, serqirra tushuncha. Ma'naviy barkamol inson - komil inson tushunchasi bilan hamohangdir. Ayni vaqtda ma'naviy barkamol inson tushunchasi bilan ham bog'lanib ketadi.

Komil insonni voyaga yetkazishdan iborat keng ko'lamlı vazifalar bugun oldimizda turgan ulkan maqsadlar bilan bevosita uyg'unlashuvchi jarayondir.

Komillik, mehr-muruvvat, adolat, to'g'rilik, vijdon, or-nomus, iroda, tadbirkorlik, matonat kabi ko'plab asl insoniy hislat va fazilatlar majmuidir. Komil inson hoyasi azal-azaldan xalqimizning ezgu-orzusi, ma'naviyatimizning uzviy bir qismi bo'lib kelgan. Zardushtiylikning muqaddas kitobi "Avesto"da halol mehnat komillikning asosiy mezoni sifatida talqin etilgan. Ibn Sino, Beruniy, Farobiy, Navoiy kabi mutaffakkirlarning komil insonni tarbiyalash haqidagi fikrlari jamiyat taraqqiyotidagi yangi ma'naviy imkoniyatlar izlash maqsadlari bilan bog'langan. Komil inson qullik, mutelik, boqimandalikdan batamom xalos bo'lgan inson. Komil inson o'z maslagi, Vatani, xalqi manfaatlariga yot, zararli g'oyalarni tarqatayotgan kimsalar ortidan ko'r-ko'rona ergashib ketavermaydi, o'goh va faol bo'ladi.

Komil insonlarning siyrat va suratida ilohiylik va insoniylik mujassamdir, zotan ilohiylikni insoniylikdan va insoniylikni ilohiylikdan ajratib tasavvur qilib bo'lmaz. Ulug' insonlardagi qudrat va karomat, ma'naviylik yetuklik ularning taqvolari evaziga tangri taolo bergan bir ilohiy ne'mat, tangri taolo qudrati va kamolotining muayyan miqdordagi ifodasi va davomidir.

Shuning uchun komil insonlar hayotini o'rganish va insonlar hayotini o'rganish va insonning o'zini, ham Ollahning tanish va bilish kalitidir.

Buyuk vatandoshimiz Shayx Najmiddin Kubro tasavvuf ta'limotining Kubroviya yo'nalishiga asos solgan mashhur mutafakkirdir. Shayx Najmiddin Kubro - "Tasavvufdagi komil inson tushunchasi ilohiylik va insoniylik tabassumining mukammal va oliy darajasi, odamlarning odamlarni olamni butunlikda, asil uyg'unlikda ko'rish orzu hayollari, kamolot mash'ali bo'lish barobarida aniq va shaxslar, ya'ni valyulloh insonlar rutbasini tan olish va qonunlashtirish hamdir. Chunki komil inson barcha ilmlardan, zohiriy va botiniy donishdan boxabar, qalbida g'ayb asrori jo'sh urib turgan zot" - deb ta'riflaganlar.[1. -B. 89.]

Shayx Najmiddin Kubro inson zakovati va aqliy - vajdiy qobiliyatiga yuksak baho berib, aytadiki: "Viloyat (valiylik) odam bolasiga azaldan nasibadir, chunki odam

Parvardigorning suygan maxluqi, Parvardigor odamga aql bergan, uni kuchli mavjudotdan afzal qilib yaratgan". [2. -B. 45.]

Har qanday jamiyatning rivoji, istiqboli, qudrati oxir-oqibatda har jihatdan inson omiliga borib taqalar ekan, demak bizning hozirgi vaqtda o'z oldimizga qo'ygan kelajagi buyuk, xuquqiy demokratik, davlat, erkin fuqarolik jamiyatni barpo etishdek buyuk maqsadimizning to'la ma'noda ruyobga chiqishi, avvalo mamlakat yosh avlodini qay ko'rinishda tarbiya olib, kamolotli shaxslar sifatida kamol topib borishlariga bog'liqdir.

Hozirgi vaqtda ijtimoiy hayot sari shaxsdagi kirib kelayotgan hozirgi yoshlarning tafakkuri, ongi va dunyoqarashida otashin millatparvarlik, milliy g'urur, milliy iftixor, vatanparvarlik, o'zi tug'ilib voyaga etgan zaminga, uning fuqarolariga mislsiz mehr-muxabbat, fidoyilik, sadoqat tuyg'ularini kamol toptirish, ularni shu tarzda tarbiyalab voyaga etkazish, ma'rifatli ilm fan va madaniyat sohasi xodimlari oldida turgan umumdavlat va dolzarb ahamiyatga ega vazifa hisoblanadi. Shu jihatdan qaraganda Oliy ta'lim tizimida faoliyat olib borayotgan professor o'qituvchilar zimmasiga ham katta mas'uliyatli va sharafli vazifa yuklaydi.

Oliy ta'lim muassasalari xodimlari o'z tarbiyalanuvchilari ongiga, qalbiga umuminsoniy va madaniy merosga hurmat, o'z urf-odatlaridan g'ururlanish histuyg'ularini singdirishga, o'z mamlakatining rivojlanishiga, ijtimoiy va iqtisodiy qudrati va istiqboli uchun kurashga, o'z bilimi, iqtidori va aql zakovatini hamda mehnatini bag'ishlashga da'vat etuvchi ziyokorlardir.

Yosh O'zbekistonimizning kelajak bunyodkorlari bo'lgan navqiron yoshlarimiz taqdiri va uning istiqbolini yoshlar qo'liga ishonib topshirib qo'yganligi hali yoshlar uchun katta imkoniyatdir. Shuning uchun bunday yoshlarni xarakterlovchi eng muhim xususiyatlar, xossalarni tadqiq etishimiz lozim. Insonparvar demokratik jamiyat qurish jarayonida sodir bo'layotgan tub sifatiy o'zgarishlar, yangi tipdagi barkamol inson shaxsini shakllantirishni kun tartibiga qo'yimoqda.

Amerikalik sotsiolog R.Mertan 1960-yillarda shaxsni "Nostandart faoliyati"ga qarab ijtimoiy tiplarga bo'lishni taklif etadi. Uning fikriga ko'ra, inson faoliyati shaxs va jamiyatning ijtimoiy tuzilmasi orasidagi o'zaro munosabatlar xarakteriga ega.

Shaxsning ana shunday vaziyatdagi faoliyatiga qarab olim uning quyidagi besh tipga ajaratadi:

1. Jamiyatda mavjud maqsad va vazifalarni maqsad qilib olgan shaxs;
2. Maqsadga erishish, mumkinligiga ishonmasada, vositalarni qabul qilgan shaxs;
3. Maqsadni qabul qilgan, lekin mavjud an'anaviy vositalardan voz kechgan shaxs;
4. Ham maqsaddan, ham vositalardan voz kechgan shaxs;

5. Maqsad va vositalardan voz kechgan, ayni paytda qadriyatlar va faoliyat normalariga asoslangan ijtimoiy tuzilmalarni yaratishga intila boshlagan shaxs hisoblanadi.

Insonparvar shaxsning boshqa tipdagi shaxslardan farqi shundaki, uning barcha fazilatlari, umuminsoniy e'tiqod, insonlarni ulug'lash kayfiyati bilan sug'orilganligidir.

Zero shiddat bilan rivojlanib borayotgan davrning zarur talablaridan kelib chiqqan holda fikr yuritib, kelajagimiz yaratuvchilari bo'lgan yoshlarimizning ongi-tafakkuriga ezgulik urug'ini qadab, ularni barkamol va komil insonlar qilib tarbiyalash, voyaga etkazish, xaqiqiy vatanparvar, yurtparvar va insonparvar darajasiga etkazish demokratik tamoyillar yo'ldan izchil ilgarilab borayotgan O'zbekistonimiz oldida turgan eng asosiy vazifa bo'lib qolmoqda.

Har qanday jamiyat ma'naviyat madaniyatning tarkibiy qismi, boy bilim olami bo'lib, u insonni qaerda yashashi va harakat qilishini, umuman, dunyodagi va jamiyatdagi o'rmini belgilashga yordam beradi. Madaniy qadriyatlar inson uchun o'ta shaxsiy mohiyat va mazmun kasb etib, inson u orqali boshqa kishilar bilan, butun jamiyat bilan munosabat o'rnatadi. Qadriyatlar jamiyatga manzur bo'luvchi axloq shakllarini yaratishda va anglashda insonga yordam beradi. Tahsinga loyiq joyi shundaki, insonda boshqalarga nisbatan munrozarali emas, balki muloyim munosabat shakllanadi. Nizolar tug'ilgan hollarda jamiyatni mustahkamlashga munosib bo'lgan bartaraf qilishning qulay usullari topiladi.

Jamiyat, avvalo tarixning muayyan bir taraqqiyoti bosqichida tabiatdan ajralib chiqqan moddiy dunyoning tarkibiy qismi bo'lib, rivojlanuvchi kishilar hayotiy faoliyatlarining majmuidir. Shuningdek, jamiyat kishilik tarixining muayyan bosqichi yoki ijtimoiy tizimning aniq tipi hisoblanadi. Ishlab chiqarish munosabatlarining majmui ijtimoiy munosabatlar deyiluvchi jamiyatni, ya'ni tarixiy taraqqiyotning muayyan bosqichidagi jamiyatni vujudga keltiradi.

Shaxs bilan jamiyatning o'zaro munosabatlari turli tarixiy davrlarda turlicha bo'lib, shaxs madaniyati jamiyat madaniyatini belgilaydi va shaxs madaniyati ham o'z navbatida muayyan bir jamiyat shaxs madaniyatini kamol toptirishda o'zining me'yoriy qoidalarini belgilaydi va shaxsning ma'naviy ehtiyojlarini ta'minlaydi.

Jismonan va ma'nan barkamol avlodni tarbiyalash borasidagi islohotlarimiz jamiyatning boshqa sohalari bilan chambarchas bog'langan holda, tizimli va bosqichma-bosqich amalga oshirilmoqda. Jumladan, tibbiyot, ta'lim va sport sohalarida amalga oshirilayotgan islohotlarning pirovard maqsadi ham yosh avlodni sog'lom va etuk inson qilib tarbiyalashdir.

Mamlakatimizda yoshlarning har tomonlama sog'lom voyaga etishlari uchun shart-sharoitlar etarli. Iqtidorli o'g'il-qizlarning izlanuvchanligi, ijtimoiy faolligi,

tashabbuskorligini oshirish va rag'batlantirish, sog'lom avlodni kamolga etkazishning mukammal tizimi shakllantirilgan.

Eng muhimi, o'z Vatanining taqdiri, uning buguni va kelajagi uchun mas'uliyatni chuqur his etadigan, mustaqil va yangicha fikrlaydigan kadrlar tayyorlash yo'lida amalga oshirilgan zalvorli ishlar o'z samarasini bermoqda.

### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Ziyomuxammedov B. va boshqalar. Ma'naviyat asoslari. -Toshkent: Ma'naviyat. 2000.
2. Karimov Sh, Shamsutdinov R. Vatan tarixi. -Toshkent :O'qituvchi, 1997.
3. Tulenov K.. Qadriyatlar falsafasi. Toshkent: 1998. - 123 b.
4. Qadriyatlar va ijtimoiy taraqqiyot. -Toshkent: O'zbekiston. 1997.
5. Кадирова Х. Б. Научное наследие мыслителей центральной Азии //Вестник магистратуры. - 2015. - №. 2-2 (41).
6. Kadirova H. Role of women in scientific life of Uzbekistan //Europaische Fachhochschule. - 2015. - №. 1.